



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___ *-umumiy o'rta ta'lim maktabi*
tarix fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yilida 11-sinf I yarim
yillik uchun O'zbekiston tarixi fanidan

DARS

ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 11-sinf O‘zbekiston tarixi fanidan I yarim yillik taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi	1		
2.	O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimi	1		
3.	Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi	1		
4.	Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi	1		
5.	O‘zbekistonda tub islohotlar: Harakatlar strategiyasidan Taraqqiyot strategiyasi sari	1		
6.	O‘zbekistonda tub islohotlar: Harakatlar strategiyasidan Taraqqiyot strategiyasi sar	1		
7.	Qurolli kuchlar va milliy armiya	1		
8.	1-Nazorat ishi	1		
9.	Milliy iqtisodiyotning barpo etilishi	1		
10.	Mamlakatda ishlab chiqarish salohiyatining oshishi va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv	1		
11.	Mamlakatda ishlab chiqarish salohiyatining oshishi va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv	1		
12.	Mamlakat ishlab chiqarish salohiyati va jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi	1		
13.	Mamlakat ishlab chiqarish salohiyati va jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi	1		
14.	Ijtimoiy siyosat va uni amalga oshirish bosqichlari	1		
15.	2-Nazorat ishi	1		
16.	Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: mustaqillik deganda, avvalo, davlatning suverenligi, ichki va tashqi siyosatini mustaqil belgilashi, o'z qonunlarini qabul qilishi va fuqarolari huquqlarini himoya qilishi haqida tushuncha berish. Bugungi hayotimizni tahlil qilish va kelajakni ishonch bilan tasavvur qilish, tarix milliy g'ururimiz, Vatanni sevishga undovchi kuch, kelajakka mas'uliyat bilan qarashga o'rgatish.

Tarbiyaviy: mustaqillik xalqimizning eng katta g'alabasi sifatida milliy tiklanish va taraqqiyotning yangi davrini boshlanganligini, yurtimizda milliy davlatchilikni mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga o'tish, madaniyat va ma'naviyatni yuksaltirish, xalq farovonligini oshirish yo'lida keng ko'lamli islohotlar olib borilayotganligi haqida tushuncha berish.

Rivojlantiruvchi: faktlar va voqealar bilan tanishtirish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, bahs yuritish va xulosa chiqarish, mustaqillik yillarida xalqimiz erishgan yutuqlarni chuqur anglab, kelajakda Vatanimiz ravnaqi uchun hissa qo'shadigan shaxs sifatida shakllantirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar tizimi.

Kommunikativ kompetensiya:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, davr bilan dialogga kirishish, ilmiy muloqotni tashkil etish;

ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z nuqtai nazarini asoslash, himoya qilish va jamoaviy qarorlar qabul qilish;

muloqot jarayonida o'zining his-tuyg'ularini boshqarish, nizoli vaziyatlarda konstruktiv qarorlar qabul qilish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

o'z xatti-harakatini adekvat baholash, o'z-o'zini nazorat qilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish;

o'z ustida mustaqil ishlash va ijodiy-izlanishga doir faoliyatni tashkil etish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Mustamlakachilik va kommunistik mafkura asosida qurilgan tuzumni boshdan kechirgan o'zbek xalqi mustaqil rivojlanish davrini boshlar ekan, o'z oldiga demokratiya va inson haq-huquqlari hamda erkinliklarini ta'minlash singari oliy maqsadlarni qo'ygan. XX asrning 80-yillari oxiriga kelib

O'zbekiston SSRda mustaqillik yo'lidagi amaliy harakatlar kuchaya boshladi. Natijada 1990-yil 20-iyunda O'zbekiston SSRning Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilindi. Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan bu deklaratsiyani qabul qilishda xalqimizning ilg'or ziyoli qatlami hamda respublika Oliy Soveti deputatlari faollik ko'rsatdilar. Mustaqillik deklaratsiyasida o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy



taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an'analari hisobga olinishi ko'zda tutildi. Mustaqillik deklaratsiyasidan O'zbekistondagi ziyoli va faol qatlamning umidi katta edi. Natijada bu deklaratsiya O'zbekiston mustaqilligi uchun tashlangan ulkan qadam bo'ldi. XX asrning 90-yillariga kelib sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish va ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari XII chaqiriq VI sessiyasi o'z ishini boshladi. Unda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risidagi masala kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi. Sessiyada O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi va uni mustaqillik to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif etdi. Oliy Kengash deputatlarining moddama-modda muhokamasidan so'ng "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonunga ko'ra, O'zbekistonning huquqiy holati tubdan o'zgardi. 17 moddadan iborat ushbu qonun O'zbekiston Respublikasining suvereniteti asoslarini belgilab berdi. O'z mohiyatiga ko'ra bu hujjat respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini ham bajaradigan bo'ldi. "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun O'zbekiston mustaqil davlat sifatida qo'ygan ilk qadamlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asosini tashkil etdi. O'z mazmun-mohiyatiga ko'ra uni "Muvaqqat kichik konstitutsiya" deb ta'riflash mumkin. O'zbekiston Respublikasining ilk konstitutsiyasini tayyorlash va qabul qilish vazifasi kun tartibiga chiqdi. Mazkur tarixiy ish **bo'yicha** O'zbekiston rahbari Islom Abdug'aniyevich Karimov boshchiligidagi 64 a'zodan iborat komissiya 1990-yil 20-iyundayoq tuzilgan edi. Ular konstitutsiyaning birinchi, ikkinchi va uchinchi loyihalarini ishlab chiqqan. Bu borada dunyodagi eng rivojlangan, demokratik jamiyat tamoyillariga asoslangan davlatlar tajribasi o'rganilgan. Konstitutsiya loyihasi 1992-yil 26-sentyabrda va 21-noyabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Komissiya bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflarni ko'rib chiqib, loyihaga o'zgartirish va tuzatishlar kiritdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilindi. O'zbekistonning davlat bayrog'i, gerbi va madhiyasiga doir takliflar hamda ular to'g'risidagi nizomlarni tayyorlash ham kun tartibidagi asosiy masalaga aylandi va bu boradagi ishlar boshlab yuborildi. 1991-yil 18-noyabrda "O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida"gi, 1992-yil 2-iyulda



Abdulla Oripov



Mutal Burhonov



Islom Karimov davlat mustaqilligini e'lon qilmoqda

"O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi to'g'risida"gi, 1992-yil 10-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Shu kuni Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan madhiya variant tasdiqlandi. Prezidentlik instituti prezident davlat boshlig'i sifatida asosiy siyosiy qarorlar qabul qiladigan boshqaruv shakli hisoblanadi. 1990-yil 24-mart kuni O'zbekiston SSR Oliy Sovetining navbatdan tashqari sessiyasida Prezident lavozimi ta'sis etildi. Bu qaror sovet davrining oxiri va markazlashtirilgan ijro hokimiyatiga o'tish jarayoniga to'g'ri keldi. Ittifoqdosh respublikalar orasida



birinchi bo'lib O'zbekiston SSRda prezidentlik boshqaruvi joriy qilingan edi. Prezidentlik institutining paydo bo'lishi mamlakat tarixidagi muhim voqea bo'lib, u mustaqillikka erishish va davlatchilik asoslarini shakllantirish, milliy manfaatlarini himoya qilish va davlat boshqaruvini markazlashtirishga xizmat qildi. 1990-yil 24-martda O'zbekiston SSR Oliy Sovetining sessiyasida Islom Karimov O'zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi. Keyingi yillarda mustaqillik e'lon qilingach, 1992-yildagi Konstitutsiya prezidentlik institutini yangi respublika qonunchiligi tarkibiga qo'shib, uning vakolatlari va maqomini belgilab berdi. Bu voqea O'zbekiston siyosiy tarixida muhim burilish sanasi sifatida yodda qoladi. 1991-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi muqobilik asosida o'tkazilib,

saylovchilarning 86 foiz ovozi bilan Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. 1995-yil 26-martda o'tkazilgan referendum asosida Prezident vakolatlari 2000-yilgacha uzaytirildi. 2000-, 2007- va 2015-yillarda o'tkazilgan saylovlarda I. Karimov Prezidentlikka qayta saylandi. 2016-yil 2-sentyabr O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov miya qon aylanishining o'tkir buzilishi (insult) oqibatida vafot etdi. Vasiyatiga binoan Samarqand shahridagi Hazrati Xizr qabristoniga dafn etildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazifa va vakolatlarini vaqtincha bajarish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Shavkat Miromonovich Mirziyoyev zimmasiga yuklandi. Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 8-sentyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqida O'zbekistonning zamonaviy tarixi mamlakatimizning chinakam mustaqillikka erishishida juda og'ir va mashaqqatli kurash davri bo'lganini ta'kidladi. Shavkat Mirziyoyev siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida demokratik islohotlarni va o'zgarishlarni chuqurlashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablarini bajarish, mamlakat suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish borasidagi ishlarni rivojlantirishni alohida ta'kidladi. Mazkur sana o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixida Yangi O'zbekiston davri boshlangani bilan e'tiborlidir.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi qanday siyosiy vaziyatda yuz berdi?
2. "Ona Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish - oliy saodatdir" degan fikrni qanday tushundingiz? Siz saodatga erishish uchun xalqimizga qanday xizmat qilishni rejalashtirgansiz? Bu yo'lda sizga nimalar kerak bo'ladi?
3. 2010-yilda O'zbekiston gerbiga kichik o'zgarish kiritilib, bayroq o'rtasidagi "O'zbekiston" yozuvi kirill alifbosidan lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'girildi. Sizingcha, bu nima bilan bog'liq edi?

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlaridagi elementlar mohiyatini ochib bering. Mamlakatimiz madhiyasidagi ushbu satrlarni ko'p ming yillik tariximiz, davlatimiz bayrog'i va gerbidagi elementlar bilan bog'lab tushuntiring:

Ajdodlar mardona ruhi senga yori

Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,

Olamni mahliyo aylagan diyor!"

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimi

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: mustaqillik deganda, avvalo, davlatning suverenligi, ichki va tashqi siyosatini mustaqil belgilashi, o‘z qonunlarini qabul qilishi va fuqarolari huquqlarini himoya qilishi haqida tushuncha berish. Bugungi hayotimizni tahlil qilish va kelajakni ishonch bilan tasavvur qilish, tarix milliy g‘ururimiz, Vatanni sevishga undovchi kuch, kelajakka mas'uliyat bilan qarashga o‘rgatish.

Tarbiyaviy: mustaqillik xalqimizning eng katta g‘alabasi sifatida milliy tiklanish va taraqqiyotning yangi davrini boshlanganligini, yurtimizda milliy davlatchilikni mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, madaniyat va ma'naviyatni yuksaltirish, xalq farovonligini oshirish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar olib borilayotganligi haqida tushuncha berish.

Rivojlantiruvchi: faktlar va voqealar bilan tanishtirish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, bahs yuritish va xulosa chiqarish, mustaqillik yillarida xalqimiz erishgan yutuqlarni chuqur anglab, kelajakda Vatanimiz ravnaqi uchun hissa qo‘shadigan shaxs sifatida shakllantirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar tizimi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

axborotlarni mustaqil izlab topish, tahlil etish, qiyoslash va xulosa chiqarish;
axborot manbalaridan samarali va oqilona foydalanish, hujjatlar ustida ishlash;
axborot iste'moli madaniyatini egallash, axborot xavfsizligini ta'minlash va axborot xurujlariga qarshi kurashish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalana olish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e‘lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Bugungi kunda dunyoning ko‘plab yetakchi davlatlarida turli xil boshqaruv shakllari mavjud. Masalan, AQSH va Braziliyada prezidentlik respublikasi mavjud bo‘lib, bu yerda prezident asosiy rahbar hisoblanadi. Germaniya va Italiyada parlament respublikasi shakli amal qiladi, ya'ni siyosiy qarorlarni parlament va bosh vazir qabul qiladi. Fransiya hamda Rossiyada esa aralash boshqaruv shakli mavjud bo‘lib, prezident va parlament birgalikda muhim rol o‘ynaydi. Davlat boshqaruvi shakli asosan amalda davlat hokimiyati siyosatini belgilashda qaysi organning mavqeyi yuqoriligi bilan aniqlanadi.

O‘zbekiston mustaqillikning ilk bosqichida prezidentlik boshqaruv shaklini tanladi. Prezident davlat rahbari bo‘lish bilan birga, Vazirlar Mahkamasi, ya'ni hukumatning ham rahbari edi. Bu orqali ijro hokimiyati samarali ishlashi ta'minlandi. Prezident fuqarolarning huquq va erkinliklariga,

Konstitutsiyaga va qonunlarga rioya etilishini kafolatlovchi shaxs sifatida belgilandi. Mustaqillikdan oldin O‘zbekiston SSRda ijro hokimiyati Ministrlar Soveti orqali amalga oshirilgan. 1990-yildan bu organ Vazirlar Mahkamasi deb nomlana boshladi. Prezident ayni vaqtda uning raisi bo‘ldi. Shu davrda vitse-prezident lavozimi joriy etildi. U hukumat ishlariga rahbarlik qilishi belgilandi. Bu lavozimga Shukrullo Mirsaidov tayinlandi. Vitse-prezident Prezident tomonidan tayinlanar, Oliy Sovet tomonidan tasdiqlanar edi. 1992-yilda vitse-prezidentlik lavozimi tugatilib, uning o‘rniga Bosh vazir lavozimi joriy etildi. Ushbu o‘zgarishlar davlat hokimiyati boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qildi.

1990-1992-yillarda	1992-1995-yillarda	1995-2003-yillarda	2003-2016-yillarda	2016-yildan
<ul style="list-style-type: none"> • Shukrullo Mirsaidov • Vitse-prezident 	<ul style="list-style-type: none"> • Abdulhoshim Mutalov • Bosh vazir 	<ul style="list-style-type: none"> • O‘tkir Sultonov • Bosh vazir 	<ul style="list-style-type: none"> • Shavkat Mirziyoyev • Bosh vazir 	<ul style="list-style-type: none"> • Abdulla Aripov • Bosh vazir

2002-yilda o‘tkazilgan referendumdan so‘ng ikki palatali parlament tuzildi. Bu jarayon xalq tomonidan qo‘llab-quvatlandi va yangi qonunlar ishlab chiqishni talab qildi. 2003-yilda Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risidagi qonun yangilandi. Unda Prezidentning hukumat raisi sifatidagi vakolati bekor qilindi. Bu norma 2007-yilda Konstitutsiyadan ham chiqarildi. 2011-yilda Konstitutsiyaga o‘zgartishlar kiritildi. Endi Bosh vazir lavozimiqa nomzod parlamentda enq ko‘p o‘rin olgan partiya yoki bir nechta partiyalar tomonidan ko‘rsatiladi va parlament tomonidan tasdiqlanadi. Bu o‘zgarishlar parlament va siyosiy partiyalarning vakolatlarini kengaytirishga xizmat qildi. O‘zbekiston tarixida ilk bor 2015-yilda Bosh vazir lavozimiga nomzod Prezident tomonidan emas, balki saylovda g‘alaba qozongan siyosiy harakat - O‘zLiDeP tomonidan ilgari surildi va Shavkat Mirziyoyev shu tariqa parlament tomonidan tasdiqlandi. O‘zbekistonda uch hokimiyat - qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati - har biri mustaqil faoliyat yuritadi, lekin ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Prezident bu uchala hokimiyat faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mustaqil organ hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi organ - O‘zbekiston parlamenti dastlab Oliy Kengash, keyinchalik Oliy Majlis maqomida faoliyat yuritgan. Mustaqillikdan so‘ng, 1994-yilgacha parlament bir palatali edi. 2002-yilgi konstitutsiyaviy referendumdan so‘ng parlament ikki palatali bo‘ldi. Quyi palata - Qonunchilik palatasi xalq tomonidan, yuqori palata - Senat - hududiy deputatlar tomonidan saylanadi. Senat davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda faol ishtirok etadi. O‘zbekistonda saylov tizimi xalqaro tan olingan tamoyillarga asoslanib, bosqichma-bosqich takomillashdi. 2019-yil 22-dekabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga navbatdagi saylov "Yangi O‘zbekiston. Yangi saylovlar" shiori ostida o‘tkazildi. 2020-yil 24-yanvarda Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnoma yo‘lladi. Unda, jumladan, qonunchilikdagi muhim masalalar bo‘yicha takliflar, mamlakatni yaqin istiqbolda rivojlantirishga doir strategik yo‘nalishlar, siyosiy, iqtisodiy, g‘oyaviy-mafkuraviy qoidalar bilan bir qatorda, parlamentning qonun ijodkorligi faoliyatiga taalluqli aniq takliflar va shu kabi boshqa fikr va mulohazalar bayon etildi. O‘zbekistonda sud-huquq tizimining rivojlanishini ikki davrga ajratish mumkin:

1. 1991-2016-yillar - mustaqillikdan keyingi ilk bosqich.
2. 2016-yildan hozirgi kungacha - chuqur islohotlar davri.

O‘zbekistonda sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan va boshqa tashkilotlardan mustaqil ravishda ish yuritadi. Bu mustaqillik bosqichma-bosqich mustahkamlandi.

Sudlar awal jazolovchi organ sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, keyinchalik fuqarolarning huquq va erkinliklarini

himoya qiladigan mustaqil institutga aylana bordi. Bu yo‘nalishda bir qator qonunlar va me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi. Sud hokimiyatining asosiy vazifasi adolatni ta‘minlashdan iborat bo‘lib, uning faoliyati siyosiy bosim va tashqi aralashuvlardan qat‘iy himoyalangan. 2016-yildan boshlab sud



tizimining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. 2017-yilda muhim o'zgarishlar amalga oshirildi:

Sud qarorlarini ko'rib chiqish bosqichlari: ilgari olti bosqichli tartib bo'lgan bo'lsa, endi uch bosqichli tizim joriy etildi.

Bu xalqaro standartlarga mos keladi. "Bir sud - bir instansiya" tamoyili: har bir ish faqat tegishli instansiyada ko'rib chiqiladi, bu esa ortiqcha takroriy ko'rib chiqishlarni kamaytiradi. Nazorat instansiyasi: xalqaro tashkilotlar tanqid qilgan nazorat bosqichi butunlay bekor qilindi. Xususan, sudlar faoliyati takomillashtirilib, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yurituvchi sohasida sud hokimiyatining yagona oliy organi – Oliy sudga birlashtirildi. Sudyalar oliy kengashi, ma'muriy sudlar, Oliy sud huzurida Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti tashkil etildi. Sudlarga yangi vakolatlar berildi. Endi pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish, murdani eksqumatsiya qilish, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish yoki u yerda qolish muddatini uzaytirish uchun sanksiya berish huquqi prokurorlardan sudlarga o'tkazildi. Shuningdek, sudlar zarur bo'lsa, muqobil ehtiyot choralarini qo'llash huquqiga ega bo'ldi. Jinoyat protsessida yarashuv instituti kengaytirildi. Endi bu institut sud jarayonining barcha bosqichlarida qo'llanadi.



Jinoyat ishlarida dastlabki eshituv, fuqarolik va iqtisodiy sudlarda sudgacha majlis, soddalashtirilgan tartibda ish yuritish va mediatsiya institutlari joriy etildi. Bu o'zgarishlar sud ishlarini tez va adolatli hal etishga xizmat qiladi. Shaxsga nisbatan qiynoqqa solish, shafqatsiz yoki inson qadrdiqimmatini kamsituvchi muomala va jazo turlarini qo'llashning oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlar joriy etildi. Bunday qilmishlar uchun javobgarlik kuchaytirildi. Agar shaxs ushlangan yoki jinoyat ustida qo'lga olingan bo'lsa, unga nisbatan protsessual harakatlar boshlanishidan oldin advokat bilan xoli uchrashuvi ta'minlanishi shart deb belgilandi. Bu inson huquqlarini himoya qilishda muhim qadam hisoblanadi. Sudlar faoliyatida "yagona darcha" tartibi joriy etildi. Endi ish fuqarolik, iqtisodiy yoki ma'muriy sudga taalluqli bo'lishidan qat'i nazar, ariza yagona tartibda qabul qilinadi. Bu tizim fuqarolarga qulaylik yaratadi va murojaatlarni tez ko'rib chiqishga yordam beradi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ilk bor 2017-yilda mahkumlarni afv etish to'g'risida farmon e'lon qildi. Bu esa insonparvarlik tamoyillariga asoslangan muhim huquqiy amaliyot sifatida baholanadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. 2016-yildan keyingi sud islohotlari, masalan, uch bosqichli tizimga o'tish va nazorat instansiyasining bekor etilishidan nima maqsad qilingan?
2. Sudlarga yangi vakolatlar (masalan, ayblanuvchini lavozimidan chetlatish) berilishi qanday ma'no kasb etadi va bu inson huquqlari himoyasiga qanday ta'sir qiladi?
3. Yarashuv instituti va mediatsiya kabi yangi mexanizmlar sud jarayonlarini qanday yaxshilaydi?

V. O'quvchilarni rag'batlantirish.

darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish:

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga asoslanib 4-ustundagi bo'sh joylarni (og'zaki) to'ldiring.



O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi


42 listdan iborat O‘zbekiston tarixi fanidan 11-sinf I yarim yillik konspektni to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

**To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#
Plastik egasi Nabiye Zokirjon**



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni xizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quyidagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**